

YURIDIK TA'LIMDA PEDAGOGIK MAHORAT VA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH

Amanyo'lov Sindor Faxriddin o'g'li

Sirdaryo viloyati yuridik texnikumi direktorining o'quv
ishlari bo'yicha birinchi o'rinbosari, 1-darajali yurist

Telefon: +998(99) 477 66 07

amanyolovs@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14531944>

***Annotatsiya.** Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi muassasalari faoliyati mazmunini qaytadan ko'rib chiqilayotgan davrda ijtimoiy amaliyot, jamoatchilik tarbiyasi, ta'lim va tarbiyaning aniq maqsadga qaratilganligi erkin shaxsni shakllantirishning asosini tashkil etmoqda. Ta'lim jarayonini modernizatsiyalash, ta'lim sifatini oshirish, jamiyatni ma'naviy yangilash birinchi navbatda, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodga insonparvarlik va demokratik qadriyatlarni singdirish orqali ta'minlanadi. Bularning barchasi yosh kadrlarni tayyorlash va rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Bunda, albatta, talaba-yoshlardagi ma'lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish o'ta muhim ko'rsatkichdir. Ushbu maqolada yuridik ta'lim xususan, "Davlat va huquq nazariyasi" fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda fanni chuqurroq va qiziqarli qilib o'tish usullari va metodlari haqida.*

***Kalit so'zlar:** Yuridik ta'lim, davlat va huquq nazariyasi, kreativlik, kompetentlik, tasodifiy moslashuvchanlik, o'ziga xoslik, yurist-pedagogning kreativlik potentsiali, bir qolipda fikrlamaslik, tashabbuskorlik, tashabbuskorlik, Taqdimot (prezentatsiya), muammoli ma'ruza, "Savol-javob" sessiyasi, mahorat darslari (Master-klass), seminar, trening, kichik guruhlarda ishlash, "Intervyu" metodi, "Debat" metodi, aqliy hujum.*

ПРИМЕНЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ И ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ЮРИДИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

***Аннотация.** В период, когда пересматривается содержание деятельности учреждений системы непрерывного образования в нашей стране, социальная практика, народное образование, образование и воспитание являются основой формирования свободной личности. Модернизация образовательного процесса, повышение качества образования, духовное обновление общества обеспечивается прежде всего за счет привития подрастающему поколению гуманистических и демократических ценностей. Все это имеет особое значение в подготовке и развитии молодых кадров. При этом, безусловно, очень важным показателем является создание и внедрение эффективных*

организационных форм и технологий обучения, служащих развитию образовательного уровня, интеллектуального потенциала, социальной активности, творческих способностей обучающихся. В данной статье речь идет о путях и методах углубления и интересности предмета с использованием современных педагогических технологий в преподавании «Теории государства и права».

Ключевые слова: Теория государства и права, креативность, компетентность, произвольная гибкость, оригинальность, творческий потенциал юриста-педагога, нестандартность мышления, инициатива, инициатива, Презентация (презентация), проблемная лекция, «Вопрос-ответ». сессия, мастер-классы (Мастер-класс), семинар, тренинг, работа в малых группах, метод «Интервью», метод «Дебаты», «мозговой штурм».

APPLICATION OF PEDAGOGICAL SKILLS AND INTERACTIVE METHODS IN LEGAL EDUCATION

Abstract. In the period when the content of activities of institutions of the continuous education system in our country is being reconsidered, social practice, public education, education and upbringing are the basis for the formation of a free person. Modernization of the educational process, improvement of the quality of education, spiritual renewal of the society is provided primarily by inculcating humanitarian and democratic values in the young generation. All this is of particular importance in the training and development of young personnel. In this, of course, the creation and implementation of effective organizational forms and technologies of education that serve to develop the educational level, intellectual potential, social activity, and creativity skills of students is a very important indicator. This article is about the ways and methods of making the subject deeper and more interesting using modern pedagogical technologies in the teaching of "Theory of State and Law".

Key words: Theory of the state and law, creativity, competence, random flexibility, originality, creative potential of a lawyer-pedagogue, not thinking in one mold, initiative, initiative, Presentation (presentation), problem report, "Question-answer" session, master classes (Master class), seminar, training, work in small groups, "Interview" method, "Debate" method, brainstorming"

KIRISH

Bugun malakatimiz barcha fan sohalarini rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Hozirda o'quv dargohlarning ta'lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, insonlarda ilm sari intilish istagi kuchaymoqda. Shu maqsadda keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini izchil rivojlantirish

borasida aniq, izchil va keng ko‘lamli kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinayotganini ta’kidlash lozim. Yuqoridagi omillar o‘z navbatida pedagog jumladan yurist pedagoglarning ta’lim jaroyini zamonaviy, xalqaro va milliy tajribalardan foydalangan holda tashkil etish, ta’limda zamonaviy pedogogik metodlar va texnologiyalardan keng foydalanishni taqazo qilmoqda. Huquqiy fanlar doirasida “Davlat va huquq nazariyasi” fani alohida ahamiyatga ega bo‘lib, o‘qituvchining fanga alohida yondashishini talab qiladi. Sababi, davlat va huquq nazariyasi – nazariy fan, ya’ni fan o‘rganadigan masalalar barchasi abstrakt tushunchalar hisoblanadi. U davlat va huquq taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini ochib beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Davlat va huquq nazariyasi fanini bir qancha olimlar tomonidan o‘rganib chiqilgan. Xususan, mahalliy olimlarimizdan X.T. Odilqoriyev, Axmedshayeva, Saydullayev lar o‘rganib chiqishgan. Bundan tashqari, bu fandan pedagog hodim qo‘llashi mumkin bo‘lgan metodlar va texnologiyalarni . G.Gulyamova va I.Rustambekovlar o‘zlarining qo‘llanmalari orqali taxlil qilganlar

NATIJALAR

Jamiyat har doim ijodga va ijodiy fikrlaydigan insonlar muhtoj bo‘lgan. Hozirgi zamonda bu kreativlik degan tushunchani anglatadi. Kreativlik o‘z-o‘zidan birdaniga shakllanmaydi, u muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi.¹ Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor, shaxsning ijodiy qobiliyatining namoyon bo‘lishi). Shaxsning kreativligi uning ongi, tafakkuri, muloqoti, emotsiyasi, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik iqtidorning muhim ko‘rsatkichidir. Dastlab, ijod aqlning vazifasi sifatida ko‘rib chiqilgan va aqlning rivojlanish darajasi ijodkorlikning rivojlanish darajasi bilan aniqlangan. Keyinchalik, aqlning darajasi ijodkorlik bilan faqat ma’lum bir chegaraga bog‘liqligi va juda yuqori intellekt ijodkorlikka xalaqit berishi olimlar tomonidan asoslab berilgan. Hozirgi paytda jahon ta’lim tizimida kreativ pedagogika birikmasi faol qo‘llanilmoqda. Olimlar tomonidan kreativ pedagogika ijodiy o‘rganish to‘g‘risidagi fan va san’at tarzida e’tirof etilmoqda. Bu pedagogikani har kimga tatbiq etish mumkin. Chunki pedagogik ijodkorlik – o‘qituvchi, talabaning qobiliyati, uning yangi g‘oyalarni yaratishga tayyorligini nazarda tutadi. Bu pedagogika ta’lim samaradorligini ta’minlash uchun xizmat qiladi. Umuman olganda, pedagogik kreativlik ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratishdir. Kreativ pedagogika quyidagi ikki holatni kafolatlashi lozim: 1) o‘qituvchi, talabalar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularni o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e’tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalb etish; 2) o‘qituvchi, talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasligi fan

mavzularini puxta o'zlashtirishda sustkashlikka sabab bo'ladi. Bu talabalarda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga to'sqinlik qiladi. Yurist-pedagogning kreativlik potentsiali. Yuridik fanlarni o'zlashtirishda talabalarni kreativ (ijodiy) fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun, avvalo, pedagogning o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lishi zarur, ya'ni o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor bo'lsagina, talabalar ham shunday bo'la oladi. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur. Har qanday pyedagogning kreativ potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Yuristmuallimning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

MUHOKAMA

Davlat va huquq nazariyasi huquqshunoslik fanlari tizimida markaziy o'ringa ega. U yuridik fanlarning metodologik poydevorini tashkil etib, davlat va huquqning nazariy muammolarini o'rganadi. Yuqoridagilarga asosan, davlat va huquq nazariyasi fanini o'qitishda quyidagi metodlarni qo'llasak bo'ladi. Muammoli ma'ruza Muammoli ma'ruza – reproduktiv o'qitish shaklidan farqli o'laroq, ma'ruza davomida bilimlarni uzatish passiv shaklda amalga oshirilmaydi. Ya'ni, o'qituvchi tayyor bayonotlarni taqdim etmaydi, faqat savol beradi va muammoni aniqlaydi. Qoida va ta'riflarni talabalarning o'zlari tuzadilar. Bu usul ancha murakkab va talabalardan mantiqiy fikrlash bo'yicha ma'lum tajribaga ega bo'lishni talab qiladi. Audio va video materiallardan, AKTdan foydalangan holda interfaol dars Bunda asosan onlayn testlar, elektron darsliklar bilan ishlash, o'quv dasturlari, o'quv saytlaridan foydalaniladi Demak, mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi muassasalari faoliyati mazmunini qaytadan ko'rib chiqilayotgan davrda ijtimoiy amaliyot, jamoatchilik tarbiyasi, ta'lim va tarbiyaning aniq maqsadga qaratilganligi erkin shaxsni shakllantirishning asosini tashkil etmoqda. Ta'lim jarayonini modernizatsiyalash, ta'lim sifatini oshirish, jamiyatni ma'naviy yangilash birinchi navbatda, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodga insonparvarlik va demokratik qadriyatlarni singdirish orqali ta'minlanadi. Bularning barchasi yosh kadrlarni tayyorlash va rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Bunda, albatta, talaba-yoshlardagi ma'lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish o'ta muhim ko'rsatkichdir. "Intervyu" metodi Guruhda 2 nafar ishtirokchi bilan juftliklar tuziladi. Ular bir-birlarini yaxshi

tanamaydi, ularga tanishib olishlari uchun 2-3 minut vaqt beriladi. So'ng juftliklarning har bir a'zosi butun guruhga o'z sherigi to'g'risidagi o'zi ega bo'lgan ma'lumotlarni jamlab, biror qiziqarli faktni qo'shgan holda bayon etadi. Bu metod yana taklif qilingan mutaxassis bilan ham olib borilishi mumkin. Bunda talabalar va o'qituvchilar taklif qilingan mehmonga tayyorlab qo'ygan savollarini berishadi. Intervyu qiziqarli mavzuda o'tkazilishi lozim. Davradagi bir guruh talabalarga mehmonning fikrini o'rganish taklif qilinadi. Kirish savollarini tayyorlab qo'ygan guruh birinchi bo'lib savol beradi. Guruhdagi har bir kishi bitta odam bilan tanishadi. Bu usul ham 25 kishidan ortiq guruhda qo'llanilmaydi. "Debat" metodi Bu usulning asosiy maqsadi - muammoning yechimini topishda talaba o'z fikriga boshqalarni ishontirish. Mazmun-mohiyati esa mustaqil fikrni aniq va mantiqan bayon etish, ishonarli dalillar topish, ularni xulosalashdan iboratdir. "Debat" metodining shartlari: talabalar ikki guruhga ajratiladi; mavzu rezolyutsiya shaklida ifodalanadi va e'lon qilinadi; har bir guruhdan guruh sardori va kuzatuvchi-hisobchi tayinlanadi; rezolyutsiyani qo'llab-quvvatlaydiganlar o'qituvchining o'ng tomoniga, qarshilar esa chap tomoniga o'tadilar; o'qituvchi so'zga chiquvchilar uchun vaqt (reglament)ni belgilaydi; bahsni rezolyutsiyaga qarshi tomon vakillari boshlaydi. O'qituvchi guruh talabalarining birinchisiga so'z beradi va uning fikri, argumentlarini tahlil qilib boradi. Kuzatuvchilar ularni yozib boradi. Talabalar navbatma-navbat so'zga chiqadilar; muammoning yechimiga qaratilgan, barchani o'ylashga majbur etadigan argumentlar keltirilishi lozim; o'qituvchi darsni yakunlab, xulosalaydi va talabalarni baholaydi. Bundan tashqari fanning "Davlat shakllari" mavzusidan seminar tashkil etayotganda "Ertak" metodidan foydalanish mumkin. Bunda seminar darsda o'qituvchi ma'ruzada o'tilgan ma'lumotlarni ertak ko'rinishida aytadi va ularning qo'llariga ertak matni beriladi. Pedagog ertakni ataylab buzib (xat6) o'qiydi va ular qo'llaridagi matn ham xatolardan iborat bo'lishi kerak. O'qituvchi esa o'sha xatolarni aniqlaydi va belgilab ketadi. Ertak so'ngida pedagog qayerlarda xato qilganini navbat bilan so'raydi

XULOSA

Zamonaviy kadrlar oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri – malakali mutaxassislar sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan tarzda atrofidaqilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsatishdir. Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, huquqiy fanlar orasida "Davlat va huquq nazariyasi" fani alohida o'rin tutadi. Bu esa o'z navbatida pedagogdan alohida fanga yondashuvni talab qiladi. Yuqoridagi metodlardan foydalanish orqali o'qituvchilarga mazkur mavzu yuzasidan bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishilari uchun quyidagi yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar tayyorlandi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, // 05.09.2019 y., 03/19/563/3685-son.
2. X.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi darslik. – T.: Adolat. 2018.
3. Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi darslik. – T.: Adolat. 2021.
4. I.Rustambekov.Yuristprudensiya ta'lim dasturlarida o'quv darslarini o'tkazish-o'quv qo'llanma. –T.: 2022.
5. G. Gulyamova. "Huquq fanlarini o'qitishda pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" o'quv qo'llanma. –T.: 2021
6. <http://www.lex.uz> 7. <http://www.gov.uz> 8. <http://www.norma.uz>